

O‘ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA O‘RTASIDAGI HAMKORLIKNING YO‘LGA QO‘YISH ODIMLARI

Ermo‘minov Abduvahob Xudoyberdi O‘g‘li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 4-kurs talabasi

abduvaxobermuminov@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning o‘rnatilishi va dastlabki o‘n yillikdagi rivojlanish dinamikasi tadqiq etiladi. Tadqiqotdan maqsad – savdo-iqtisodiy hamkorlikning huquqiy asoslari, sarmoyaviy muhitning shakllanishi hamda oltin qazib olish, paxtachilik va tamaki sanoati kabi strategik sohalardagi qo‘shma loyihalarni tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada yuqori darajadagi rasmiy tashriflar, xususan, "Britaniya American Tobacco", "Liverpool paxta uyushmasi" kabi yirik korporatsiyalar bilan hamkorlik natijalari hamda Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universitetining tashkil etilishi kabi madaniy-ma‘rifiy aloqalar dalillar asosida ochib berilgan. Xulosalar ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyaning barqarorlashuvi va Britaniya investitsiyalarining O‘zbekiston iqtisodiyoti modernizatsiyasidagi ahamiyatini asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston va Buyuk Britaniya munosabatlari; diplomatik aloqalar; savdo-iqtisodiy hamkorlik; investitsiya loyihalari; Omontoytov-Goldfildz; British American Tobacco; Liverpool paxta uyushmasi; Vestminster universiteti; Tovar ayirboshlash; strategik sheriklik.*

Buyuk Britaniya O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 31-dekabrda tan oldi va 1992-yil 18-fevraldan diplomatik aloqalarni o‘rnatdi. O‘zbekiston bilan Buyuk Britaniya o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik 1993-yil noyabrda Prezidentimizning Buyuk Britaniyaga qilgan rasmiy tashrifi chog‘ida imzolangan “Savdo-iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risida”, “Kapital qo‘yilmalarni sarflanishini rag‘batlantirish va o‘zaro himoya qilish haqida” va “Ikki yoqlama soliq solinishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi” shartnomalarga asoslangan.

“British Airways” kompaniyasi bilan tuzilgan shartnomaga binoan 1992-yil 31-dekabrda boshlab “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasining samolyotlari haftasiga 4 marta Londonga qatnab turibdi. 1994-yilda “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi Buyuk Britaniya transport departamenti bilan kelishib, Toshkent – Manchester – Toshkent o‘rtasida muntazam reyslar bajarish huquqini oldi.

1993-yil 17-19-iyul kunlari Buyuk Britaniya qirolichasining qizi Malika Anna O‘zbekistonda bo‘lib, mamlakatimiz, xalqimizning turmush tarzi bilan tanishib, Samarqand shahrining o‘lmas tarixiy yodgorliklarini ziyorat qilib ketgan edi. 1994-yil 4-12-oktabr kunlari Toshkentda “Britaniya festivali” o‘tkazildi. Festival dasturi doirasida Buyuk Britaniyaning 30 ga yaqin mahsulotlari ko‘rgazmasi namoyishi bo‘lib o‘tdi.

1993-yil 15-oktabr kuni Buyuk Britaniya Tashqi ishlar va hamdo‘stlik ishlari bo‘yicha vaziri Duglas Xogning O‘zbekistonga rasmiy safari chog‘ida ikki davlat o‘rtasida madaniyat va ta‘lim sohalaridagi hamkorlik, ikki yoqlama soliq olmaslik haqidagi bitimlar imzolandi. 1993-yil 22-23-noyabr kunlari O‘zbekiston Prezidenti I. Karimov boshchiligidagi respublikamiz delegatsiyasining rasmiy tashrifi amalga oshirildi. Safar chog‘ida delegatsiya a‘zolari ingliz qirolichasi Yelizavetta II hamda Bosh vazir Jon Meyjor bilan uchrashishdi. Uchrashuvlar natijasida O‘zbekiston Respublikasi va Buyuk Britaniya o‘rtasida sarmoyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoyalash to‘g‘risida bitim, havo yo‘llarini ochish to‘g‘risida bitim hamda ikki mamlakat o‘rtasida fuqarolarning erkin yurishi to‘g‘risida memorandum imzolandi.

Mashhur Rotshildlar oilasi banki hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) bilan uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki O‘zbekistonda oltin qazib olish korxonalarini qurish uchun 150 mln AQSH dollari ajratishga qaror qildi. O‘zbekiston va “Lonrho” kompaniyasi o‘rtasida imzolangan oltin biznesi haqidagi bitim amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi. Unga ko‘ra, “Amantaytau-Goldfields” qo‘shma korxonasi tuzilib, Do‘g‘iztov va Amantaytau korxonalari ish boshladi. Liverpool paxta assotsiatsiyasi rahbarlari bilan O‘zbekiston paxta tolasini jahon bozorida sotish bo‘yicha muzokaralar olib borildi.

1995-yil yakuniga ko‘ra, Buyuk Britaniya O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan tovar aylanmasi hajmi bo‘yicha 2-o‘rinda turadi (Germaniyadan keyin). O‘zbekistondan Buyuk Britaniyaga paxta tolasini, qimmatbaho toshlar, qora metallurgiya, volfram va ulardan yasalgan buyumlar yuborilsa, Buyuk Britaniyadan mexanik va elektr asbob-uskunalarini, qandolat mahsulotlari, plastmassadan yasalgan buyumlar, farmatsevtika mahsulotlari, shuningdek, qog‘oz, karton, mebel, optik priborlar va apparatlar, tamaki, sut mahsulotlari, kimyoviy birikmalar hamda noorganik kimyo mahsulotlari keltiriladi.

O‘zbekiston 1994-yilda jahon paxta savdosi me‘yorlari va qoidalarini muvofiqlashtirib turadigan muhim nohukumat tashkiloti – Liverpool paxta uyushmasiga a‘zo bo‘ldi. O‘zbekiston shu uyushma bilan birgalikda mamlakatimizda paxtani sertifikatlashning xalqaro tizimini joriy etish bo‘yicha ish olib bordi. Keyingi yillarda ikkala mamlakatning turli darajadagi delegatsiyalari o‘zaro tashriflari natijasida hamkorlik tobora yaxshilana bordi. 1994-yil 14-oktabrda Londondagi oltin tozalash zavodi (LBM) O‘zbekiston oltin quymalariga

eng maqbul maqomni tasdiqlovchi sertifikat berdi. Bu esa O‘zbekiston tamg‘asi butun dunyoda eng yuqori sifat belgisi ekanini bildiradi. 1996-yil oktabrda mazkur uyushma huzurida yuqori sifatli kumush quymalar ishlab chiqaruvchi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” vakolatxonasi rasmiylashtirildi. 1996-yil 2-4-oktabr kunlari Toshkentda navbatdagi “Britaniya festivali” o‘tkazildi.

O‘zbekiston–Britaniya savdo va sanoat kengashining majlislari muntazam ravishda o‘tkazilib turibdi. Bu majlislarda iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish masalalari, savdo-sotiq, iqtisodiyot va investitsiya sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirish istiqbollari muhokama qilinadi. Ayrim yirik firma, kompaniya va banklar o‘rtasidagi hamkorlik ham rivojlangan.

Bugungi kunda O‘zbekistonga qo‘yilgan xorijiy investitsiyalar hajmi bo‘yicha bu davlat yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Shu bilan birga, savdo-iqtisodiy munosabatlar jadal rivojlanib bormoqda. O‘zbekistonda britaniyalik investorlar tomonidan tashkil etilgan 161 ta korxonalar mavjud bo‘lib, shundan 41 tasi 100% Britaniya sarmoyasiga asoslangan. Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo agentligida 35 ta Britaniya kompaniya va firmalarining vakolatxonalari ro‘yxatga olingan. 2005-yilning 5-noyabrda navbatdagi 10-yig‘ilishini o‘tkazgan O‘zbekiston – Britaniya savdo-sanoat kengashi samarali faoliyat olib bormoqda.

2003-yilning 2-6-sentabrda London Siti Lord-meri G. Arturning O‘zbekistonga kelishi Britaniya ish-bilarmon doiralarining mamlakatimiz bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish hamda respublika bank-moliya sohasidagi islohotlar ijobiy natija berishidan manfaatdor ekanini namoyon etdi.

2002-yilda tovar ayriboshlash miqdori 302,1 mln dollarni (2001-yili esa 285,3 mln dollar), shu jumladan eksport 229 mln dollar, import 73,1 mln dollarni tashkil etdi. Ijobiy saldo 155,6 mln dollar bo‘lib, 2003-yilning boshida bu ko‘rsatkich 180,6 mln dollarga yetdi.

2003-yilda ikki davlat o‘rtasida ta’lim sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida qo‘shma bayonot imzolandi. Shu yilning may oyida Toshkent Vestminster universitetining rasmiy ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Ushbu dargohda dastlab 320 nafar yoshlar ta’lim oldi. 2001-yilning 5-sentabrda taniqli siyosiy arbob va biznesmen lord Seysberri boshchiligida Britaniya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati ta’sis etildi.

Buyuk Britaniya Xalqaro taraqqiyot ishlari vazirligi (DFID) tomonidan O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimini isloh etish, xususan, birlamchi tibbiy yordamni rivojlantirish strategiyasini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan loyiha ishlab chiqilgan. Loyihaning umumiy qiymati 1 mln 650 ming dollarni tashkil etdi.

“O‘zyog‘moymamakisanoat” uyushmasi xorijiy sarmoya yordamida o‘z korxonalarini yangilash va ta’mirlash maqsadida “Crown” kompaniyasi bilan shartnoma tuzdi. Shartnomaga binoan, Qo‘qon yog‘-moy korxonasi ingliz sarmoyasi hisobiga qayta qurilib,

asbob-uskunalari zamonaviylashtirildi. O‘zbekistonda tamaki sanoatini rivojlantirish uchun “British American Tobacco” kompaniyasi bilan bitim imzolandi. Unga ko‘ra, 232 mln AQSH dollari miqdoridagi mablag‘ sarflandi. Bu mablag‘ asosan Toshkent tamaki fabrikasi, Urgut tamaki fermentatsiyasi fabrikasini rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalashga, Samarqand tamaki fabrikasini qurishga, ijtimoiy tadbirlarga va mutaxassislar tayyorlashga ishlatildi. Toshkent tamaki fabrikasida “Saraton” va “Xon” sigaretlarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

1996-yil oxirida Surxandaryo viloyatining “Xandiza” konida rangli metallarni qidirish haqida “Oxus Resources Corporation” korporatsiyasi bilan dastlabki bitim imzolandi. Bitimga ko‘ra, Buyuk Britaniya firmasi o‘z mablag‘i hisobidan konni o‘rganishi, texnik-iqtisodiy asoslarni tayyorlashi va loyihani amalga oshirishi belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ziya Bursalıođlu. Okul Yönetiminde Yeni Yapı ve Davranış. – Ankara: A.Ü.E.F Yayını,1999. –S.86.
2. Мусульманский мир. Выпуск №12. – Москва: 2003. –С.45.
3. Абдураззакова. М. «Политика лаицизма в Турции: история и современность» – Ташкент: 2007. –154. с
4. Ely Karmon. Radical islamic political groups in Turkey. –London: Published by MERIA. Vol.7. Dec. 4. 1997. – 204. p.
5. Уразова, Е. И. «Экономические взгляды и практика исламистов в Турции» // Ислам и политика (взаимодействие ислама и политики в странах Ближнего и Среднего Востока, на Кавказе и в Центральной Азии). – Москва: 2001. 120.с.
6. Bayramođlu Ali. Türkiye’de İslami Hareket. 1.baskı. – İstanbul: Patika yayıncılık, 2001. – 87.s.